



## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH JARAYONINI EKONOMETRIK TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Baxodirov No'monxon Kamolxonovich**

*Farg'ona politexnika instituti*

ORCID: 0009-0001-5369-1541

[baxodirov1989@gmail.com](mailto:baxodirov1989@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatining rivojlanish bosqichlari, oziq-ovqat mahsulotlarining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, uning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati hamda rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Oziq-ovqat sanoatini ekonometrik tahlil qilish orqali oziq-ovqat sanoatini rivojantirishning nazariy asoslari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** oziq-ovqat sanoati, mahsulot, modernizatsiya, ekonometrik tahlil, iqtisodiy samaradorlik, tendensiya, ekologik ta'sir.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОЦЕССА ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ

**Баходиров Нуъмонхон Камолхонович**

*Ферганский политехнический институт*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются этапы развития пищевой промышленности в нашей стране, место пищевых продуктов в экономике страны, их социальное и экономическое значение, а также перспективы развития. Через эконометрический анализ изучаются теоретические основы развития пищевой промышленности.

**Ключевые слова:** пищевая промышленность, продукт, модернизация, эконометрический анализ, экономическая эффективность, тенденция, экологическое воздействие.

## THEORETICAL FOUNDATIONS OF ECONOMETRIC RESEARCH INTO THE FOOD PRODUCTION PROCESS

**Bahodirov Numonkhon Kamolkhonovich**

*Fergani Polytechnic Institute*

**Abstract.** This article examines the stages of development of the food industry in our country, the role of food products in the national economy, their social and economic significance, as well as development prospects. The theoretical foundations of food industry development are explored through econometric analysis.

**Keywords:** food industry, product, modernization, econometric analysis, economic efficiency, trend, ecological impact.

## Kirish.

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk davrlaridan boshlab ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etish, mavjud barcha sohalarida keng ko'lamli izchil islohotlarni amalga oshirish bo'yicha muhim taraqqiyot yo'li tanlandi. Mamlakat aholisini to'g'ri ovqatlanish me'yorlariga mos, yuqori sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Chunki mustaqillik davrigacha respublikamizda oziq-ovqat sanoatining holati qoniqarli darajada emas edi. Umuman olganda mamlakatimizda oziq-ovqat sanotini rivojlanish jaryonini 4 bosqichda ko'rib chiqishni lozim topdik.

O'zbekistonda oziq-ovqat sanoatining rivojlanishining asosiy bosqichlari ko'rib chiqadigan bo'lsak 1-bosqichda, 1920-yillar o'rtalariga kelib O'zbekiston hududida qishloq xo'jaligiga e'tibor berila boshlandi. Mamlakatda paxta ishlab chiqarish asosida dastlabki oziq-ovqat sanoati shakllandi, 1930-yillarda meva-sabzavot, go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari barpo etila boshlandi, 1950-1960-yillarda sanoatni o'stirish va diversifikatsiya qilish, bu jarayon esa oziq-ovqat sanoatini ham o'z ichiga oldi. Bu davrda turli hildagi oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash uslublari amalga joriy etildi. 2-bosqich esa mustaqillik va undan keyingi davrni qamrab oladi. 1991-yilda mustaqillik e'lon qilingandan so'ng, O'zbekiston oziq-ovqat sanoati qiyin davrni boshdan kechirdi.

Ushbu sohada kadrlar va resurslarni yetishmasligi iqtisodiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Ushbu muommolarni barataraf etish uchun qishloq xo'jaligida keng islohotlar amalga oshirila boshlandi. Mustaqillikdan so'ng, hukumat tomonidan oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish uchun davlat dasturlari ishlab chiqildi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirishga qaratilgan qat'iy chora-tadbirlar ko'rildi. 3-bosqich esa mamlakatimizdagi iqtisodiy islohatlar davrini o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda oziq-ovqat sanoatni modernizatsiya qilindi. 2000-yillarda oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilashda katta qadamlar tashlandi. 2010-yillardan boshlab, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va yangi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga e'tibor qaratildi. Oziq-ovqat sanoatida yangi tijorat korxonalari va fermer xo'jaliklari ochildi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksportni oshirish va oziq-ovqat sanoatini diversifikatsiya qilishga qaratilgan turli davlat dasturlari amalga oshirildi. 4-bosqich esa 2020-yildan shu kungacha bo'lgan vaqtni qamrab oladi. Ushbu davrga kelib oziq-ovqat sanoatida barqarorlik va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga e'tibor qaratilmoqda. Yuqori sifatli, ekologik toza va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish jarayonlari davom etmoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatimiz iqtisodiyotida oziq-ovqat saoti muhim va strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Chunki, oziq-ovqat mahsulotlari har bir davlatning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Ular nafaqat aholining birlamchi hayotiy talablarini qondirish uchun zarur bo'lgan mahsulotlar sifatida, balki qishloq xo'jalik va sanoat rivojlanishini ta'minlovchi asosiy elementlar sifatida ham ahamiyatga ega. Oziq-ovqat mahsulotlari nafaqat aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi, balki iqtisodiy barqarorlikni, qishloq xo'jalik rivojlanishini va eksport imkoniyatlarini ham oshiradi. Oziq-ovqat iqtisodiyoti nafaqat qishloq xo'jaligi sektori, balki savdo, xizmat ko'rsatish va xalqaro munosabatlar sohalariga ham o'zaro bog'langan.

Yuqoridagi fikr-mulohzalardan kelib chiqib O'zbekistonda ham ushbu sanoat sohasini rivojlantirish bo'yicha prezidentimizning bir qator qaror va farmonlari ishlab chiqilib zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2020 yildagi "Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4821-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2024 yildagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-36-sonli farmoni shular jumlasidandir (Farmon, 2024).

Oziq-ovqat sanotini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida so'nggi yillarda mamalaktimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag'larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSh dollaridan va ularning yillik eksporti hajmi 510 million AQSh dollaridan oshdi. Shuningdek, oxirgi uch yilda import o'rnini bosuvchi 75 turdagi 289,9 million AQSh dollari miqdoridagi oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, import hajmi 7,4 foizga kamaydi. Respublika sanoatida oziq-ovqat sanoati ulushi 14 foizdan 16,6 foizga oshdi. Shuningdek, keyingi besh yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangi loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish, bozorda raqobatbardosh mahsulotlar turini yanada kengaytirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hisobiga yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravarga va eksport ko'rsatkichlarini 2 baravarga oshirish maqsad qilingan (Farmon, 2024).

Yildan-yilga oziq-ovqat mahsulotlari eksporti ortib bormoqda, bu esa iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga yordam beradi. Shu munosabat bilan ushbu sohani rivojlantirish asosida iqtisodiy islohotlarni kuchaytirish, ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish, boshqaruvning bozor tamoyillariga mos tashkiliy tuzilmasini joriy etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning mustaqilligini kengaytirish va ularning huquqiy himoyasini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish uchun yangi texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilishi ushbu sohani yanada rivojlanishiga va raqobatbardosh hamda sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishiga sabab bo'ladi. Oziq-ovqat sanoatini mamalakat iqtisodiyotidagi o'rnini doimiy ravishda tahlil qilib borish, iqtisodiy tahlillar asosida zaruriy ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish ushbu soha oldida turgan turli iqtisodiy muammolarni aniqlash va barataraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Tadqiqotni amalga oshirishda oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish va boshqarish bo'yicha mahalliy olimlarimizdan Umarovning (2009) tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarining moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichlari salohiyati tadqiq etilgan. Shuningdek, MDH davlatlari olimlaridan Zerakalov (2009) "Oziq-ovqat xavfsizligi" nomli monografiyasida ko'plab amaliy jahon tarixiy jarayonlarida oziq-ovqat xavfsizligining masalalari tahlil qilingan.

Xorijiy tadqiqotchi olimlardan Revenko (2012), "Oziq-ovqat xavfsizligi: yechim topish imkoniyati mavjud" nomli maqolasida oziq-ovqat xavfsizligini dunyo miqyosida amalga oshirish masalasi, asosan, tashqi oqimlarga, ya'ni davlatlarning ishlab chiqarish potentsiali va quvvatiga bog'liq degan masalani ko'taradi.

Fikrimizcha, oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida ularning faoliyatini tahlil qilib borish hamda ishlab chiqarish va saqlash jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini eknometrik baholash orqali soha faoliyatining rivojlanish davri qisqaradi hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ortadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**


Tadqiqotni amalga oshirishda oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyati ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda monografik tadqiqotlar asosida nazariy va amaliy jihatdan keng o'rganib chiqildi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy abstraksiya, statistik ma'lumotlar tahlili va sintez usullaridan foydalanildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Statistik ma'lumotlarga asosan o'tgan yili mamlakatimizda 23 mln tonna poliz mahsulotlari va meva-sabzavot yetishtirilgan, qayta ishlash orqali esa 86 trln so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti 1,7 mlrd dollardan oshgan. Oxirgi 5 yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish yillik ishlab chiqarish o'sishi 18 foizni tashkil etmoqda. O'zbekiston

Mamlakatimiz Prezidentining farmonlari bilan 2024 yil yakunigacha asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari uchun import bojxona boji nol stavka etib belgilangan. 2024 yilning yanvar-aprel oylarida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari importi 670,6 mln dollarni tashkil qilib, 2023 yilning mos davriga nisbatan 20 foizga yoki 169,1 mln dollarga kamaydi. Ayrim mahsulotlar importi esa oshgan, jumladan go'sht mahsulotlari importi 122,5 mln dollarga yoki 35 foizga oshgan. Sohada yechimini kutayotgan muhim masala, sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturlarini uyg'unlashtirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlashni davlat tomonidan rag'batlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning kompleks tizimini yaratish hisoblanadi.

Oldimizda turgan dolzarb vazifalar biri qishloq xo'jaligi mahsulotlarini (paxta va g'alladan tashqari) ekishdan boshlab, mahsulotni saqlash, qadoqlash, qayta ishlash va sotish zanjirini to'liq qamrab oladigan davlat tomonidan rag'batlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning kompleks dasturini qabul qilish orqali sanoat va qishloq xo'jaligini mutanosib rivojlantirish hisoblanadi. Hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanishida ijobiy o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Buni esa bevosita statistik ko'rsatkichlar asosida anglash qiyin emas. Ushbu ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki mamlakatimizda 2010 yilga nisbatan 2023 yilda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 11,9 marttaga ortgan (1-rasm).



**1-rasm. Mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarining yillik ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'mda)**

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Ushbu sohani rivojlantirishda iqtisodiy statistik ko'rsatkichlar asosida ekonometrik tahlil qilish, bu sohadagi muammolarni aniqlash, rivojlanish tendensiyalarini tushunish va ratsional qarorlar qabul qilish muhimdir. Oziq-ovqat sanoatini iqtisodiy samaradorligini statistik ko'rsatkichlar asosida ekonometrik tahlil qilishning bir qator ijobiy tomonlari mavjud.

Ekonometrik tahlil iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni o'rganish, tushunish va prognoz qilishda muhim ahamiyatga ega. Ekonometrik tahlil iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniq baholash, iqtisodiy siyosatlarni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy nazariyalarni empirik ravishda tasdiqlashda muhimdir. U iqtisodiyotning murakkabligini tushunishga va tegishli qarorlarni qabul qilishga yordam beradi. Umuman olganda, ekonometrik tahlil iqtisodiy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va iqtisodiy muammolarni hal qilishda muhim vositadir.

Oziq-ovqat sanoatini ekonometrik tahlil qilish yordamida talab va taklif, narxlar va iste'molchilarning xulq-atvorini o'rganish mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, barcha sanoat tarmoqlari singari oziq-ovqat sanoatini ham ekonometrik tahlil qilish ko'plab ijobiy jihatlarga ega. Quyida ushbu jihatlarga to'xtalib o'tamiz.

1. Ma'lumotlarni tahlil qilish: Ekonometrik tahlil orqali oziq-ovqat sanoatidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar (masalan, ishlab chiqarish hajmi, ishga olingan xodimlar soni, daromadlar va xarajatlar) o'rganiladi. Bu ma'lumotlar sanoatning samaradorligini baholash va uning rivojlanishi uchun asos bo'ladi.

2. O'zaro bog'lanishlarni aniqlash: Tahlil yordamida oziq-ovqat sanoatining boshqa sektorlar bilan o'zaro bog'lanishlari o'rganiladi. Masalan, qishloq xo'jaligi, transport, marketing va boshqa sohalar bilan bog'liqliklar aniqlanishi mumkin.

3. Samaradorlik va ekologik ta'sir: Ishlab chiqarish jarayonida ekologik faktorlar, energiya sarfi va resurslar samaradorligini tahlil qilish tashkilotlarga barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi.

4. Rejalashtirish va strategiyalar ishlab chiqish: Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish uchun strategik rejalashtirish ekonometrik tahlil natijalariga asoslanishi mumkin. Bu hisob-kitoblar sohani barqaror rivojlantirish, mavjud muammolarni va imkoniyatlarni aniqlashda yordam beradi.

5. Oziq-ovqat xavfsizligi: Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun ekonometrik tahlil, oziq-ovqat ishlab chiqarish va iste'moliga oid tendensiyalarni baholash va monitoring qilish imkoniyatini beradi.

Oziq-ovqat sanoatining iqtisodiy samaradorligini ekonometrik tahlil qilish, bu sohaning rivojlanishini rag'batlantirish, iqtisodiy siyosatlarni takomillashtirish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhimdir. Ma'lumotlar asosida kelajakni prognoz qilish bilan birga, amaliy natijalar ham taqdim etadi, bu esa oziq-ovqat sanoatini barqaror rivojlantirishga yordam beradi.

### **Xulosa va takliflar.**

Mamlakatimizda sifatli va ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ushbu sanoati korxonalarini faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos xususiyatlarini ekonometrik tadqiq qilish asosida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan strategiyalarni aniqlash;
- oziq-ovqat sanoati bo'yicha davlat siyosati va regulyativ chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish;
- iqtisodiy shartlarning (masalan, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, va iqlim o'zgarishi) oziq-ovqat sanoatiga ta'sirini aniqlash;
- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun sifatni nazorat qilish tizimlarini yaratish;
- oziq-ovqat mahsulotlarini samarali tarqatish tizimini yaratish, bu esa mahsulotlarning yangiligi va sifatini ta'minlaydi;
- kuzatuvlar va Ekonometrik tahlillar orqali iste'molchilar xulq-atvorini aniqlash va ularning talabiga mos keladigan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish.
- oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlaridagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish;

–ekonometrik tahlillar orqali qaysi texnologiyalar samarali ekanligini aniqlab, ularga investitsiya kiritish.

–ekonometrik tahlillar orqali ekologik jihatdan xavfsiz ishlab chiqarish usullarini aniqlash va joriy etish hamda suv va energiya sarfini optimallashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Ekonometrik tahlillarni to‘g‘ri amalga oshirish va natijalarni chuqur tahlil qilish orqali oziq-ovqat sanoatida ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish mumkin. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiy o‘sishga va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini rivojlantirib borishga xizmat qiluvchi strategik salohiyat ko‘rsatkichi korxonaga qarashli moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ulardan foydalanish imkoniyati va manbalari bilan bog‘langan holda baholanishi maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Oziq-ovqat mahsulotlari mamlakat iqtisodiyotining muhim qismidir. Ular nafaqat aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlaydi, balki iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlikka ham ta‘sir ko‘rsatadi. Oziq-ovqat sektoridagi innovatsiyalar va davlat siyosati ishlab chiqarish va iste‘molni muvozanatlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Kelajakda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va sog‘lom iqtisodiy o‘sish uchun yana ham samarali strategiyalar ishlab chiqish zarur.

#### **Adabiyotlar/ *Литература* /Reference:**

*Farmon (2024) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2024 yildagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-36-sonli farmoni*

*Lilia Revenko. (2012) Prodovolstvennaya bezopasnost: reshenie vozmojno*  
[https://mgimo.ru/files/226753/2012-09\\_interaffairs](https://mgimo.ru/files/226753/2012-09_interaffairs)

*Umarov I.Yu. (2009) Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida). Diss. i.f.n. AMII 149 b. A.*

*Zerkalov D.V. (2009) Food security Electronic resource: Monograph / DV Zerkalov. – Electron. data. - K.: Osnova.*